O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
DAVLAT STATISTIKA QO‘MITASI

# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BAJARILGAN QURILISH ISHLARI ASOSIY KO‘RSATKICHLARI



**2022- YIL**
**YANVAR-DEKABR**

# Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



2022- yilning yanvar-dekabr oylarida, O‘zbekiston Respublikasida jami **130 767,1** mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati 2021- yilning mos davriga nisbatan **106,6 %** ni tashkil etdi.

## Qurilish ishlari hajmi, *mlrd. so‘mda*

**51 129,3**



**2018**

**71 156,5**



**2019**

**88 130,3**



**2020**

**107 492,7**



**2021**

**130 767,1**




**2022**

### Yillar kesimida o‘sish sur’ati




*Ma‘lumot uchun: qurilish faoliyati bu – o‘z kuchi bilan amalga oshirilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta’mirlash hajmlari va boshqalar natijasidir.*

# 2022- yil yanvar-dekabr oylarida O‘zbekiston Respublikasi qurilish ishlari

***Hududlar kesimida, mlrd. so‘mda***






Toshkent shahri
**31 908,3** mlrd. so'm



Toshkent viloyati
**12 143,8** mlrd. so’m



Samarqand viloyati
**8 762,2** mlrd. so’m

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar kesimida xususan, Toshkent shahri, Toshkent viloyati va Samarqand viloyatida qurilish ishlarining yuqori hajmlari qayd etildi.

# 2022- yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlari

Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o‘sishiga o‘zining munosib hissasini qo‘shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi – 6,6 % ga o‘sish va hajmi 130,8 trln.so‘m. Qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘rsatkichlari shuni ko‘rsatdiki:

binolar va inshootlar qurilish yo‘nalishi 68,4 foiz ulushni tashkil etib, o‘sish sur’ati 2021- yilning mos davriga nisbatan 104,4 foizga oshgan;

fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishi 21,5 foiz ulushni tashkil etib, o‘sish sur’ati 102,7 foizga yetdi;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishi 10,1 foiz ulushni va 138,2 foiz o‘sish sur’atini tashkil etdi.



***Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlari, jamiga nisbatan ulushi***










***Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlari hajmi, mlrd. so‘m***

***89 379,6***



**Bino va inshootlar qurish**

***28 139,0***



**Fuqarolik obyektlarini qurish**

***13 248,5***



**Ixtisoslashtirilgan quilish ishlari**

# 2022- yil yanvar dekabr oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **68,6** % i yoki **89 695,5** mlrd. so‘m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa jtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.



**29 215,4** mlrd. so‘m **32,6 %**

Yirik qurilish tashkilotlari bo‘yicha yangi qurilish hisobidan 29 215,4 mlrd. so‘mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 32,6 % ni tashkil etdi.

**38 812,9** mlrd. so‘m **43,3 %**

Kichik korxona va mikrofirmalar bo‘yicha yangi qurilish hisobidan 38 812,9 mlrd. so‘m yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 43,3 % ni tashkil etdi.

**21 667,2** mlrd. so‘m **24,1 %**

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 21 667,2 mlrd. so‘m yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 24,1 % ni tashkil etdi.

## *Yangi qurilishning ulushi*




## Yillar kesimida hajmi, mlrd. so‘mda

**39 397,7**




**2018**

**48 072,1**



**2019**

**63 801,1**



**2020**

**80 903,0**



**2021**

**89 695,5**



**2022**

# 2022- yil yanvar-dekabr oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

| | Yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnik qayta qurollantirish | Ulushi jamiga nisbatan % da |
|---|---|---|
| **O'zbekiston Respublikasi*** | **89 695,5** | **100,0** |
| **Qoraqalpog'iston Respublikasi** | **3 398,0** | **3,8** |
| ***viloyatlar:*** | | |
| **Andijon** | **4 902,1** | **5,5** |
| **Buxoro** | **5 569,7** | **6,2** |
| **Jizzax** | **2 790,5** | **3,1** |
| **Qashqadaryo** | **4 954,7** | **5,5** |
| **Navoiy** | **3 811,1** | **4,2** |
| **Namangan** | **5 362,6** | **6,0** |
| **Samarqand** | **6 229,8** | **6,9** |
| **Surxondaryo** | **4 886,2** | **5,4** |
| **Sirdaryo** | **2 072,0** | **2,3** |
| **Toshkent** | **6 278,8** | **7,0** |
| **Farg'ona** | **6 424,8** | **7,2** |
| **Xorazm** | **3 900,8** | **4,3** |
| **Toshkent sh.** | **18 900,1** | **21,1** |

**hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmni qo'shgan holda*



Toshkent sh
**18 900,1** mlrd. so'm




Farg'ona viloyati
**6 424,8** mlrd. so'm



Toshkent viloyati
**6 278,8** mlrd. so'm

2022- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar kesimida yangi qurilish ishlari bo'yicha yuqori hajm, Toshkent shahri (18 900,1 mlrd. so'm), Farg'ona viloyati (6 424,8 mlrd. so'm), Toshkent viloyati (6 278,8 mlrd. so'm) va Samarqand viloyatida (6 229,8 mlrd. so'm) qayd etildi.

# 2022- yil yanvar-dekabr oylarida bino va inshootlar qurilishi asosiy koʻrsatkichlari

*Korxonalar turlari boʻyicha*

## Jami bino va inshootlarni qurish – 89379,6 *mlrd. soʻm*







## Bino va inshootlarni qurish oʻsish sur’ati






Bino va inshootlarni qurish boʻyicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 28,3 % ni tashkil etib, 2021- yilning mos davridagi koʻrsatkichga nisbatan 3,0 % punktga koʻpaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga toʻgʻri kelgan ulush 2021- yilning mos davriga nisbatan 2,1 % punktga kamayib, 44,1 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2021- yilning mos davriga nisbatan 0,9 % punktga kaʻmayib, 27,6 % ni tashkil etdi.

# 2022- yil yanvar-dekabr oylarida bino va inshootlar qurilishi

## Hudadlarning hajmi va o‘sish sur’ati, *mlrd. so‘m va foizda*






Jizzax viloyati **133,5** %




Farg‘ona viloyati **117,8** %



Namangan viloyati **112,5** %

*MA’LUMOT UCHUN:* Bino va inshootlarni qurish faoliyat turi bo‘yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o‘sish sur’ati Jizzax viloyati (2021- yilga nisbatan 133,5 %), Farg‘ona viloyati (2021- yilga nisbatan 117,8 %), Namangan viloyati (2021- yiliga nisbatan 112,5 %) va Surxondaryo viloyati (2021- yilga nisbatan 112,5 %) ga to‘g‘ri keldi.

# 2022- yil yanvar-dekabr oylarida fuqarolik obyektlarini qurish asosiy koʻrsatkichlari

*Korxonalar turlari boʻyicha*

## Fuqarolik obyektlarini qurish, *oʻsish surʼati mlrd. soʻm*

**8 598,7**



**Yirik qurilish tashkilotlari**

**19 525,1**



**Kichik korxona va mikrofirmalar**

**15,2**



**Norasmiy sektor**

### Jami hajmdagi ulushi



**30,5 %**



**69,4 %**



**0,1 %**

**Yirik qurilish tashkilotlari**

Hajm – **8 598,7** mlrd. soʻm
Oʻsish surʼati – **86,0** %

**Kichik korxona va mikrofirmalar**

Hajm – **19 525,1** mlrd. soʻm
Oʻsish surʼati – **112,4** %

**Norasmiy sektor**

Hajm – **15,2** mlrd. soʻm
Oʻsish surʼati – **128,5** %

Fuqarolik obyektlarini qurish boʻyicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 30,5 % ni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 6,0 % punktga kamaydi. Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 69,4 % (6,0 % punktga koʻpayish) hamda norasmiy sektorning ulushi 0,1 % ni tashkil etdi va oʻzgarishsiz qoldi.

# 2022- yil yanvar-dekabr oylarida fuqarolik obyektlarini qurish

## *Hududlar ko‘rsatkichlari*

**Hududlarning hajmi va o‘sish sur’ati,** *mlrd. so‘m va foizda*






**3,2 marta**
Samarqand viloyati



**140,4 %**
Toshkent viloyati



**115,7 %**
Qoraqalpog‘iston Resp.

*MA’LUMOT UCHUN:* Fuqarolik obyektlarini qurish faoliyat turi bo‘yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o‘sish sur’ati Samarqand viloyati (2021- yilga nisbatan 3,2 marta), Toshkent viloyati (2021- yilga nisbatan 140,4 %) va Qoraqalpog‘iston Respublikasi (2021- yilga nisbatan 115,7 %)ga to‘g‘ri keldi.

# 2022- yil yanvar-dekabr oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari asosiy koʻrsatkichlari

*Korxonalar turlari boʻyicha*

## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari, *mlrd. soʻm*

3 200,6



**Yirik qurilish tashkilotlari**

10 047,9



**Kichik korxona va mikrofirmalar**

## Jami hajmdagi ulushi



24,2 %



75,8 %

## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari, *oʻsish sur’ati*

151,2 % — **Yirik qurilish tashkilotlari**

134,5 % — **Kichik korxona va mikrofirmalar**

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2021- yilning mos davriga nisbatan 2,1 % punktga koʻpaydi va 24,2 % ni tashkil etdi.

Qolgan 75,8 % i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga toʻgʻri kelib, 2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 2,1 % punktga kamaydi.

# 2022- yil yanvar-dekabr oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

## *Hududlar ko‘rsatkichlari*

### Hududlarning hajmi va o‘sish sur’ati, *mlrd. so‘m va foizda*






**2,7 marta**
Namangan viloyati



**2,2 marta**
Toshkent viloyati



**168,5 %**
Surxondaryo viloyati

*MA’LUMOT UCHUN:* Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari faoliyat turi bo‘yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o‘sish sur’ati Namangan viloyati (2021- yilga nisbatan 2,7 marta), Toshkent viloyati (2021- yilga nisbatan 2,2 marta), Surxondaryo viloyati (2021- yilga nisbatan 168,5 %) va Qoraqalpog‘iston Respublikasi (2021- yilga nisbatan 162,7 %)ga to‘g‘ri keldi.

# 2022- yil yanvar-dekabr oylari uchun korxonalar turlari bo‘yicha qurilish ishlarining asosiy ko‘rsatkichlari

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo‘yicha shakllanadi.

## Qurilish ishlari hajmining tarkibi, *mlrd. so’mda*

**37 146,3**



Yirik qurilish tashkilotlari

**68 953,3**



Kichik korxona va mikrofirmalar

**24 667,5**



Norasmiy sektor

### Jami hajmga nisbatan ulushi










Yirik qurilish tashkilotlari

O‘sish sur’ati – **110,0** %

Kichik korxona va mikrofirmalar

O‘sish sur’ati – **106,3** %

Norasmiy sektor

O‘sish sur’ati – **102,9** %

# Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2022- yil yanvar-dekabr oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko‘rsatkichlari



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 37 146,3 milliard so‘mni tashkil etdi. 2021- yilga nisbatan ko‘rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlarining o‘sish sur’ati 110,0 foizga yetdi va ularning umumiy hajmdagi ulushi 0,9 foizga oshib, 28,4 foizni tashkil etdi.

## Yirik qurilish tashkilotlari, ulushi % da




## Hajm va o‘sish sur’ati, yillar boyicha

| 2018 | 2019 | 2020 | 2021 | 2022 |
|---|---|---|---|---|
| 13 677,6 mlrd. so‘m | 17 195,6 mlrd. so‘m | 24 263,6 mlrd. so‘m | 29 585,6 mlrd. so‘m | 37 146,3 mlrd. so‘m |
| 95,8 % | 110,7 % | 125,7 % | 106,8 % | 110,0 % |







# Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2022- yil yanvar-dekabr oylarida bajarilgan qurilish ishlari

**Hududlarning hajmi va o‘sish sur’ati,** mlrd. so‘m va foizda




## Jami hajmga nisbatan ulushi



Toshkent shahri



Qashaqadaryo viloyati



Toshkent viloyati

**MA’LUMOT UCHUN:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko‘p ulushi Toshkent shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 36,9 % i), Qashqadaryo viloyati (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 26,8 % i) va Toshkent viloyati (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 25,0 % i)ga to‘g‘ri keldi.

# Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan 2022- yil yanvar-dekabr oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko‘rsatkichlari

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 52,7 % i to‘g‘ri kelib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 0,2 % punktga ko‘paydi. Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilning mos davriga nisbatan 106,3 % ni tashkil etgan holda 68 953,3 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi.



## Kichik korxona va mikrofirmalar, ulushi

50,0 % 55,7 % 53,0 % 52,5 % 52,7 %



2018 2019 2020 2021 2022

## Hajm va o‘sish sur’ati yillar bo‘yicha

| 2018 | 2019 | 2020 | 2021 | 2022 |
|---|---|---|---|---|
| **25 584,4** *mlrd. so‘m* | **39 620,2** *mlrd. so‘m* | **46 717,8** *mlrd. so‘m* | **56 413,8** *mlrd. so‘m* | **68 953,3** *mlrd. so‘m* |
| **172,0** % | **136,5** % | **104,8** % | **104,8** % | **106,3** % |

# 2022- yil yanvar-dekabr oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan ishlar

## Hududlarning hajmi va o‘sish sur’ati, mlrd. so‘m va foizda






**17 425,5** mlrd. so‘m
Toshkent shahar



**6 326,4** mlrd. so‘m
Toshkent viloyati



**5 791,4** mlrd. so‘m
Samarqand viloyati

Ma’lumot uchun: ko‘rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Toshkent shahrida (17 425,5 mlrd. so‘m yoki umumiy ko‘rsatkichning 54,6 % i), Toshkent viloyatida (6 326,4 mlrd. so‘m yoki 52,1 % i), Samarqand viloyatida (5 791,4 mlrd. so‘m yoki 66,1 % i) qayd etildi.

# 2022- yil yanvar-dekabr oylarida qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor



Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 18,9 foizni yoki 24 667,5 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 102,9 foizga yetdi. Shundan 17 606,4 mlrd. so‘mi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga to‘g‘ri kelib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 103,4 foizni, jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi 3 878,5 mlrd. so‘mni va o‘sish sur’ati 100,2 foizni, 3 182,6 mlrd. so‘mlik yakka tartibda turar-joylarni ta’mirlash ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati 103,4 foizni tashkil etdi.

## Norasmiy sektor, ulushi foizda

| 2021- yil | 2022- yil |
|---|---|
| 20,0 % | 18,9 % |

## Hajm va o‘sish sur’ati yillar bo‘yicha

| 2018 | 2019 | 2020 | 2021 | 2022 |
|---|---|---|---|---|
| 11 903,2 mlrd. so‘m | 14 340,6 mlrd. so‘m | 17 148,7 mlrd. so‘m | 21 493,3 mlrd. so‘m | 24 667,5 mlrd. so‘m |
| 97,2 % | 108,2 % | 103,1 % | 112,2 % | 102,9 % |


2018


2019


2020


2021


2022

# 2022- yil yanvar-dekabr oylarida qurilish ishlarining umumiy hajmidagi norasmiy sektor

## Hududlarning hajmi va o‘sish sur’ati, mlrd. so‘m va foizda






**2 784,7** mlrd. so‘m
Toshkent viloyati



**2 697,1** mlrd. so‘m
Toshkent shahri



**2 357,2** mlrd. so‘m
Buxoro viloyati

*Ma’lumot uchun:* ko‘rib chiqilayotgan davrda norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Toshkent viloyatida (2 784,7 mlrd. so‘m yoki 2021- yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 103,6 % ni tashkil etdi), Toshkent shahrida (2 697,1 mlrd. so‘m yoki 90,0 %), Buxoro viloyati (2 357,2 mlrd. so‘m yoki, 111,0 %) va Namangan viloyatida (2 321,0 mlrd.so‘m yoki, 111,8 %) qayd etildi.

# Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **4 490,4** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **126 276,7** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning respublikadagi ulushi mos ravishda **3,4 %** va **96,6 %** ni tashkil etdi.



**yanvar-dekabr oylarida hajm, *mlrd. so'mda***




Ma'lumot uchun: nodavlat mulk obyektlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng yuqori ulush Surxondaryo viloyatida (ushbu viloyatdagi qurilish ishlari umumiy hajmining 99,5 foizi), Jizzax viloyatida (qurilish ishlari umumiy hajmining 99,0 foizi) va Samarqand viloyatida (ushbu viloyatdagi umumiy qurilish ishlarining 98,1 foizi) qayd etildi.



## USLUBIY TUSHUNTIRISHLAR

**Qurilish ishlari** – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta’mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o‘zlashtirish ishlari maydoni rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta’minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o‘rnatish, devorlarni ko‘tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

**Kapital qurilishga pudrat shartnomasi** – bunda pudratchi shartnomada belgilangan ishlarni amalga oshirishi yoki havf-xatarni o‘ziga olgan holda obyektni qurish va shartnomada belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa, pudratchiga qurilish maydonini ko‘rsatadi yoki ish jabhasini ta’minlaydi, ularni qabul qiladi va to‘lovlarni amalga oshiradi.

**Qurilish tashkilotlariga** – barcha umumiy qurilish va ixtisoslashtirilgan tashkilotlar, mexanizatsiya boshqarmalari, ishga tushirish va sozlash tashkilotlari, neft va gaz uchun qidiruv quduqlari qurilishi bilan bog‘liq chuqur qidiruv burg‘ulash ishlari va boshqa ishlarni amalga oshiruvchi, shuningdek, kapital qo‘yilmalar hisobiga qurilayotgan neft va gaz uchun ekspluatatsiya quduqlari qurilishi bilan shug‘ullanuvchi burg‘ulash tashkilotlari kiritiladi.

